

KONFERENSIYALAR COM

ANJUMANLAR PLATFORMASI

**XVI RESPUBLIKA ILMIY-
AMALIY KONFERENSIYASI**

**YANGI DAVR ILM-
FANI: INSON UCHUN
INNOVATSION G'OYA
VA YECHIMLAR**

AVGUST, 2026

ISSN 3093-8791

ELEKTRON NASHR:

<https://konferensiyalar.com>



Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.
XVI Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.
2-jild, 16-son (28-avgust, 2026-yil).– 102 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

ISSN: 3093-8791 (onlayn)

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2026-yil, 26-avgust

Mas'ul muharrir:

Isanova Feruza Tulqinovna

Annotatsiya

Mazkur to'plamda "Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar" mavzusidagi XVI Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Nashrda respublikaning turli oliy ta'lim muassasalari, ilmiy markazlari va amaliyotchi mutaxassislari tomonidan tayyorlangan maqolalar o'rin olgan bo'lib, ular ijtimoiy-gumanitar, tabiiy, texnik va yuridik fanlarning dolzarb muammolari va ularning innovatsion yechimlariga bag'ishlangan.

Ushbu nashr ilmiy izlanuvchilar, oliy ta'lim o'qituvchilari, doktorantlar va soha mutaxassislari uchun foydali qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ilmiy-amaliy konferensiya, innovatsion yondashuv, zamonaviy fan, fanlararo integratsiya, ilmiy-tadqiqot, nazariya va amaliyot, ilmiy hamkorlik.

Barcha huquqlar himoyalangan.

© Scienceproblems team, 2026-yil

© Mualliflar jamoasi, 2026-yil

PEDAGOGIKA FANLARI

O'SMIRLARNING IJTIMOIYLASHUV JARAYONINING ASOSIY OMILLARI

Nishanbayeva Odina Xikmatillayevna

"OILA VA GENDER" ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI

1-bosqich doktoranti

Email: nishanbaevaodina14@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada o'smirlarning ijtimoiylashuv jarayoniga ta'sir etuvchi asosiy omillar psixologik va ijtimoiy jihatdan tahlil qilingan. O'smirlarning hissiy rivojlanishi, o'zini boshqarish, stressni yengish qobiliyati, jismoniy faolligi, ijtimoiy muhiti hamda tengdoshlar bilan munosabatlarining ijtimoiylashuv jarayonidagi o'rni yoritilgan. Shuningdek, zamonaviy raqamli muhit va ijtimoiy tarmoqlarning o'smirlar ijtimoiylashuviga ijobiy va salbiy ta'sirlari tahlil qilingan. Ilmiy adabiyotlar tahlili asosida o'smirlarning samarali ijtimoiylashuvi shaxsiy-psixologik xususiyatlar va ijtimoiy muhitning o'zaro ta'siri asosida shakllanishi aniqlangan.

Kalit so'zlar: o'smirlik davri, ijtimoiylashuv, hissiy rivojlanish, o'zini boshqarish, stressni boshqarish, psixologik farovonlik, ijtimoiy muhit, tengdoshlar, raqamli muhit, ijtimoiy tarmoqlar.

MAIN FACTORS OF THE PROCESS OF SOCIALIZATION OF ADOLESCENTS

Nishanbayeva Odina Khikmatillayevna

"FAMILY AND GENDER" SCIENTIFIC RESEARCH INSTITUTE

1st year doctoral student


Annotation. This article analyzes the main factors influencing the socialization process of adolescents from psychological and social perspectives. It examines the role of emotional development, self-regulation, stress management, physical activity, social environment, and peer relationships in adolescent socialization. The study also analyzes the positive and negative effects of the modern digital environment and social media on adolescents' socialization. Based on the analysis of scientific literature, it was determined that effective adolescent socialization develops through the interaction of individual psychological characteristics and the social environment.

Keywords: adolescence, socialization, emotional development, self-regulation, stress management, psychological well-being, social environment, peers, digital environment, social media.

DOI: <https://doi.org/10.47390/ymdif-y2026v2i16/n18>

Kirish. O'smirlik davri shaxsning jamiyatdagi o'rnini anglash, tengdoshlari va kattalar bilan munosabatlarini shakllantirish hamda mustaqil qarorlar qabul qilish ko'nikmallari rivojlanadigan muhim bosqich hisoblanadi. Shu jihatdan ijtimoiylashuv jarayoni o'smirning jamiyatdagi mavjud me'yor, qadriyat va munosabatlarni o'zlashtirishi bilan birga, ularni amaliy faoliyatda qo'llashnini ham nazarda tutadi. Mazkur jarayon bilan ijtimoiy kompetentlik tushunchasi bevosita bog'liq.

G.I.Nuriddinova hamda A.Kamalovalarning fikrlariga ko'ra, ijtimoiy kompetentlik shaxsning jamiyatda qabul qilingan ijtimoiy me'yorlar, qadriyatlar va xulq-atvor qoidalarini anglagan holda, turli ijtimoiy vaziyatlarda to'g'ri va samarali harakat qila olish qobiliyatini ifodalaydi [1]. Shuningdek, ijtimoiy kompetentlik empatiya, mas'uliyat, hamkorlik va ijtimoiy faollik kabi sifatning shakllanishiga zamin yaratadi. O'smirlarning ijtimoiylashuvi bir necha tarkibiy qismlardan tashkil topgan tizimdan iborat bo'lib, quyidagilarni o'z ichiga oladi (1-rasmga qarang)



1-rasm. Ijtimoiylashuv jarayonining tarkibiy qismlari

O'smirlik davri psixologik o'zgarishlar, mustaqillikka intilish, identitet va ahloqiy qarashlarning shakllanishi bilan tavsiflanadi. Bu davrda ijtimoiylashuv jarayoni alohida ahamiyat kasb etib, o'smir jamiyat me'yorlari, qadriyatlari va ijtimoiy rollarini o'zlashtiradi. Shu sababli o'smirlik shaxsning ijtimoiy moslashuvi va kelajakdagi ijtimoiy faoliyatini belgilovchi muhim bosqich hisoblanadi.

Nazariy manbalarni umumlashtirish asosida ijtimoiylashuvning mazmunini ikki o'zaro bog'liq yo'nalishda ko'rish mumkin:


1. Tashqi ijtimoiy tajribani o'zlashtirish: jamiyat madaniyati, odatlari, qadriyatlari, ijtimoiy rollar.

2. Shaxsning ichki psixologik o'zgarishi: motivatsiya, o'zini boshqarish, axloqiy mezonlar, shaxsiyidentitet shakllanishi.

O'smirlik davri odatda 10-11 yoshdan 14-15 yoshgacha davom etib, bu bosqichda jismoniy, aqliy va ijtimoiy rivojlanish jadallashadi. Jinsiy yetilish va ijtimoiylashuv jarayonlarining ertaroq namoyon bo'lishi o'smirlikning asosiy xususiyatlaridan biridir. Bu davrda bola va kattalik o'rtasidagi o'ziga xos o'tish bosqichi hisoblanadi.

O'smirlik davrining psixologik xususiyatlari ijtimoiylashuv jarayonining mazmunini belgilovchi muhim omillardan biridir. Shu sababli mazkur yosh bosqichining o'ziga xos xususiyatlarini alohida ko'rib chiqish maqsadga muvofiq.

R.A.Mamajonovning "Ijtimoiylashuv o'smirlarda psixologik fenomen sifatida" nomli tadqiqotida, o'smirlik quyidagi psixologik xususiyatlari bilan ajralib turadi (2-rasmga qarang) [2]:



2-rasm. Ijtimoiylashuv jarayonining o'ziga xos xususiyatlari

Yuqoridagi rasmga ko'ra, identitetning shakllanishi – o'smir kimligi, jamiyatdagi o'rni, maqsadlari haqida fikrlay boshlashi. Erikson nazariyasiga ko'ra, bu davrning asosiy psixologik vazifasi – "identitetga erishish". Mustaqillikka intilish - o'smir ota-onadan mustaqil qaror qabul qilishga harakat qiladi. Bu narsa ko'pincha qarama-qarshiliklar, ziddiyatlar va yangi tajribalarni sinab ko'rish bilan kechadi. Hissiy beqarorlik – biologik o'zgarishlar sabab his-tuyg'ular turg'un emas, bu esa ijtimoiy munosabatlarga ta'sir qiladi. Qadriyatlarni qayta ko'rib chiqish – o'smir avval qabul qilingan qoidalarni tahlil qilib, yangi hayotiy pozitsiya shakllantiradi.

O'smirlik davrida shaxsning o'zini anglashi va mustaqillikka intilishi kuchayishi uning ijtimoiy muhit bilan munosabatlarini ham o'zgartiradi. Bu jarayonda, avvalo, oila muhiti va ota-onalar bilan munosabatlar o'smirning ijtimoiy tajribasi hamda xulq-atvorining shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

O'smirlarning ijtimoiylashuvida tengdoshlarining o'rni muhim ahamiyat kasb etishi, S.J.Blakemore [8], N.Vasylyshyn, B.Hemenway Falk, J.Garcia, CN Cascio, MB O'Donnell, CR Bingham, B. Simons-Morton, JM Vettel, EB Falklarning [9] tadqiqotida ham o'z aksini topgan. Ularning tadqiqot natijalariga ko'ra, o'smirlik davrida tengdoshlar bilan muloqot va birgalikda vaqt o'tkazish topora ortib boradi. Shu bilan birga, o'smirlarda tengdoshlari tomonidan qabul qilinish va rad etilishiga nisbatan sezgirlik kuchayadi. Bu holat ularning tengdoshlari guruhiga moslashishi, guruh me'yorlariga rioya qilishi va ijtimoiy munosabatlarni shakllantirishiga ta'sir ko'rsatadi.

Tengdoshlar bilan munosabatlar o'smirning ijtimoiy tajribasini boyituvchi muhim omil bo'lsa-da, uning ijtimoiylashuvi faqat norasmiy guruhlar ta'siri bilan cheklanmaydi. O'smirning kundalik faoliyatida ta'lim muassasasi va sinf muhiti ham ijtimoiy munosabatlar, hamkorlik va mas'uliyatni shakllantiruvchi muhim makon hisoblanadi.

Oilalar va maktablar ko'pincha o'smirlarning ijtimoiylashuvi uchun ikkita asosiy kontekst sifatida qaraladi, chunki ular ijtimoiylashuv muammolarining paydo bo'lishida muhim rol o'ynaydi. Ota-onalarning hissiy ijtimoiylashuvi o'smirlarning hissiy salomatligiga sezilarli darajada ta'sir qiladi va ijobiy sinf muhiti ham o'smirlarning ijtimoiylashuv jarayoniga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. O'smirlarning ijtimoiylashuv jarayonida sinf muhiti ham katta ahamiyatga ega. Vang va hammualliflari sinf muhitining o'smirlarning ijtimoiylashuviga ta'sirini o'rganib, quyidagi xulosaga keladi [11]. Sinf muhiti - bu sinfda shakllangan barqaror va uzoq muddatli psixosotsial muhit bo'lib, u individual yoki jamoaviy a'zolarining psixologiyasi va xatti-harakatlariga chuqur ta'sir ko'rsatadi. Odatda u o'quvchilarning sinfning turli xususiyatlari, jumladan tashkiliy tuzilma, o'qitish amaliyoti, xulq-atvor normalari, rivojlanish maqsadlari, qadriyatlar va a'zolar o'rtasidagi shaxslararo munosabatlarni har tomonlama idrok etishi va tajribasini aks ettiradi va o'smirlarning ijtimoiy moslashuvini rivojlantirish uchun juda muhimdir.

Ta'lim muhitida shakllanadigan munosabatlar o'smirning nafaqat boshqalar bilan hamkorlik qilishiga, balki o'z xatti-harakatlarini boshqarishiga ham ta'sir ko'rsatadi. Shu jihatdan o'smirlarning ijtimoiylashuvida o'zini boshqarish, mas'uliyat va ijtimoiy xulq-atvorning shakllanishi alohida ahamiyatga ega.

A.I.Maliovanov o'smirlarni to'rtta guruhga ajratadi:

- 1) xatti-harakatda o'zlari anglagan ijobiy qoidalarga tayanib ish tutadigan, so'zi bilan ishi mos o'smirlar;
- 2) axloqiy tushunchalari qiliqlariga mos keladigan o'smirlar.
- 3) xatti-harakatlari axloqiy normalar haqidagi bilimlari bilan ajralib turadigan, shu bilimlarga mos harakat qilmaydigan o'smirlar,
- 4) o'zlari biladigan axloqiy talablar bilan kundalik xulq-atvorining aloqasini tushunmaydigan o'smirlar [12].

Banduraning ijtimoiy kognitiv nazariyasining asosiy tarkibiy qismi bo'lgan o'ziga ishonch ijtimoiy kompetensiyaning ajralmas qismi hisoblanadi. Bu shaxslarning dinamik ijtimoiy

sharoitlar talablarini samarali ravishda boshqarish va rivojlanayotgan jamiyatdagi muammolarni hal qilish ishonchini o'z ichiga oladi [13].

Metodologiya.

Tadqiqotning metodologik asosini o'smirlarning ijtimoiylashuvi, hissiy rivojlanishi, xulq-atvori va psixologik farovonligiga oid zamonaviy psixologik-pedagogik yondashuvlar tashkil etdi. Tadqiqotda o'smirlarning ijtimoiylashuviga ta'sir etuvchi ichki va tashqi omillarni aniqlashga yo'naltirilgan tizimli yondashuvdan foydalanildi.

Tadqiqot jarayonida ilmiy adabiyotlarni nazariy tahlil qilish, taqqoslash, umumlashtirish va tizimlashtirish metodlaridan foydalanildi. Zhang va hammualliflarining hissiy rivojlanish, Ge Chjan va hammualliflarining jismoniy faollik, o'zini boshqarish va stressni boshqarish, Igoshevning ijtimoiy muhit va xulq-atvor shakllanishi, Avci, Baams va Kretschmerlarning raqamli muhit hamda identitet rivojlanishiga oid tadqiqotlari qiyosiy tahlil qilindi.

Shuningdek, Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining 2021–2022-yillardagi HBSC tadqiqotlari asosida o'smirlarning onlayn muloqoti, kiberbulling va muammoli ijtimoiy tarmoqdan foydalanishi bilan bog'liq ma'lumotlar tahlil qilindi. Olingan nazariy ma'lumotlar asosida o'smirlarning ijtimoiylashuviga ta'sir qiluvchi asosiy omillar hissiy-psixologik, ijtimoiy-tarbiyaviy va raqamli-kommunikativ yo'nalishlarga ajratildi.

Tadqiqotning metodologik yondashuvi o'smirlarning ijtimoiylashuvini alohida omillar yig'indisi sifatida emas, balki shaxsning ichki psixologik xususiyatlari va ijtimoiy muhitning o'zaro ta'siri natijasida shakllanuvchi yaxlit jarayon sifatida ko'rib chiqishga asoslandi.

Natija va muhokama.

Natijalarga ko'ra, o'smirlarning ijtimoiylashuviga ta'sir etuvchi asosiy omillar quyidagilarni o'z ichiga oladi.

1. Oila birlamchi ijtimoiylashuv muhiti hisoblanadi. Ota-onaning tarbiya uslubi: demokratik – o'smirning mustaqilligini qo'llab-quvvatlaydi; avtoritar – qo'rquv, ichki ziddiyatlarga olib kelishi mumkin; beparvo munosabat – shaxsiy beqarorlik va deviant xulqqa sabab bo'lishi mumkin.

2. Tengdoshlar guruhi. Tengdoshlar o'smir uchun muhim ijtimoiy "maydon"dir: o'zini tasdiqlash ehtiyojini qondiradi; ijtimoiy rollarni sinab ko'rish imkonini yaratadi; xulq-atvor stereotiplarining shakllanishiga ta'sir qiladi. O'smir ko'pincha oiladan ko'ra do'stlarining bahosiga ko'proq e'tibor beradi.

3. Ta'lim muassasasi. Maktabda o'smir: jamoada ishlashni o'rganadi, mas'uliyat va intizomni o'zlashtiradi, o'qituvchilar bilan muloqot orqali ijtimoiy rollarnikengaytiradi.

4. OAV va raqamli muhit. Bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlar o'smir ijtimoiylashuvining eng faol omillaridan biridir. Ijobiy ta'siri: ijodiy imkoniyatlar, o'zini ifodalash; dunyoqarashning kengayishi; kommunikativ ko'nikmalar. Salbiy ta'siri: internetga qaramlik; virtual tajovuz (kiberbulling); yolg'on identitet yaratish.

Xulosa.

O'smirlarning ijtimoiylashuv jarayoni shaxsning hissiy, psixologik va ijtimoiy rivojlanishi bilan uzviy bog'liq. Zhang va hammualliflarining ta'kidlashicha, hissiy reaksiyalarni anglash va boshqarishdagi qiyinchiliklar o'smirlarda xavotir, tushkunlik va qo'rquv kabi muammolarni kuchaytirishi mumkin. Bu esa hissiy barqarorlikni o'smir ijtimoiylashuvining muhim ichki omillaridan biri sifatida baholash imkonini beradi.

Ge Chjan va hammualliflari o'smirlarning ijtimoiylashuvida jismoniy faollik, o'zini boshqarish, stressni boshqarish va psixologik farovonlik o'rtasidagi bog'liqlikni ko'rsatadilar. Smith va Womack esa stressni samarali boshqarish o'smirlarning turli hayotiy vaziyatlarga moslashishida muhim ekanligini ta'kidlaydi. Igoshevning tadqiqotlarida esa o'smir xulq-atvorining shakllanishida ijtimoiy muhit, tarbiya va shaxslararo munosabatlarning ahamiyati ochib berilgan.

Avci, Baams va Kretschmerlarning tadqiqotlari zamonaviy raqamli muhit ham o'smirlarning ijtimoiylashuvi va identitetini shakllantirishning muhim makoniga aylanganini ko'rsatadi. Biroq JSST ma'lumotlari ijtimoiy tarmoqlar bilan bir qatorda kiberbulling va muammoli foydalanish kabi xavflar ham mavjudligini ko'rsatmoqda.

Shunday qilib, olimlarning qarashlarini umumlashtirganda, o'smirlarning ijtimoiylashuviga hissiy barqarorlik, o'zini boshqarish, stressga moslashish, jismoniy faollik, oila va tengdoshlar muhiti, ta'lim-tarbiya hamda raqamli kommunikatsiya asosiy omillar sifatida ta'sir ko'rsatadi. Mazkur omillarning o'zaro uyg'unligi o'smirning ijtimoiy muhitga muvaffaqiyatli moslashishi va ijobiy ijtimoiy tajribani egallashini ta'minlaydi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Nuritddinova G. I., Kamalova A. O'smir yoshdagi bolalarning ijtimoiy kompetentligi // Mahalliy va xalqaro konferensiyalar platformasi. – 2026. – 2-jild, 2-son. – B. 27–29.
2. Mamajonova R. A. Ijtimoiylashuv o'smirlarda psixologik fenomen sifatida // Singapore International Scientific Conference. – 2026. – T. 1, № 1. – B. 529–531.
3. Dauletova G. M. O'smirlik yoshdagi psixologik o'zgarishlar //Хабаршысы. – 2022. – T. 3. – C. 103–106.
4. G'oziev.E."Psixologiya".Toshkent., 1994 y.136-141 b.
5. To'ychiyev A. Ota-ona tarbiyasi va oilaviy muhitning bolalar xulqiga ta'siri: <https://doi.org/10.5281/zenodo.20643497> //Scientific practical conference. – 2026. – T. 1. – №. 2. – C. 308–311.
6. Turdiyeva N. Ota-ona va farzand tarbiyasi o'rtasidagi munosabatlarning psixologik ahamiyati //Scientific practical conference. – 2025. – T. 1. – №. 1. – C. 239–242.
7. Rasulova M. A. O'smirlik davrining psixologik qiyinchiliklari // Tadqiqotlar: jahon ilmiy-metodik jurnali. – 2025. – T. 60, № 1. – B. 287–290. – DOI: 10.71337/inlibrary.uz.tadqiqotlar.95809.
8. Blakemore S. Avoiding social risk in adolescence // Current Directions in Psychological Science. – 2018. – Vol. 27, No. 2. – P. 116–122. – DOI: <https://doi.org/10.1177/0963721417738144>
9. Wasylyshyn N., Falk B. H., Garcia J. O., Cascio C. N., O'Donnell M. B., Bingham C. R., Simons-Morton B., Vettel J. M., Falk E. B. Global brain dynamics during social exclusion predict subsequent behavioral conformity // Social Cognitive and Affective Neuroscience. – 2018. – Vol. 13, No. 2. – P. 182–191. – DOI: <https://doi.org/10.1093/scan/nsy007>.
10. Tojiboyeva G. R., Saidova M. X. O'smirlarda affiliatsiya motivini shakllantirishning pedagogik-psixologik determinantlari // Maktabgacha va maktab ta'limi jurnali. – 2025. – T. 3, № 12. – B. 2196–2199. – DOI: 10.5281/zenodo.18066395.
11. Wang M., Degol J. L., Amemiya J., Parr A., Guo J. Classroom climate and children's academic and psychological wellbeing: A systematic review and meta-analysis // *Developmental Review*. – 2020. – Vol. 57. – Article 100912. – DOI: <https://doi.org/10.1016/j.dr.2020.100912>.

12. Малиованов А. Л. Роль нравственного убеждения в формировании дисциплинированного поведения советских подростков : автореф. дис. канд. пед. наук / Акад. пед. наук РСФСР, Науч.-исслед. ин-т психологии. – Москва, 1953. – 16 с.
13. Bandura A., Freeman W. H., Lightsey R. Self-efficacy: The exercise of control // Journal of Cognitive Psychotherapy. – 1999. – Vol. 13. – P. 158–166.
14. Zhang L., Liang H., Bjureberg J., Xiong F., Cai Z. The Association between Emotion Recognition and Internalizing Problems in Children and Adolescents: A Three-Level Meta-Analysis // Journal of Youth and Adolescence. – 2024. – Vol. 53, No. 1. – P. 1–20. – DOI: 10.1007/s10964-023-01891-7.
15. Tekin I., Aydin S. School refusal and anxiety among children and adolescents: A systematic scoping review // New Directions for Child and Adolescent Development. – 2022. – No. 185–186. – P. 43–65. – DOI: 10.1002/cad.20484.
16. Hashem M. M., Abdalla A. A., Mohamed A. M., Mohamed L. A., Shamaa H. A., Ahmed G. K. The relationship between alexithymia, emotion regulation, and sleep problems in school-aged children: A multicentric study // Sleep Medicine. – 2023. – Vol. 112. – P. 39–45. – DOI: 10.1016/j.sleep.2023.09.032.
17. Kwok S. Y., Li Y., Tam N. W. Longitudinal associations of suicide risk and protective factors among secondary school students in Hong Kong: A network perspective // Journal of Adolescent Health. – 2023. – Vol. 73, No. 2. – P. 310–318. – DOI: 10.1016/j.jadohealth.2023.03.01.
18. Smith M. S., Womack W. M. Stress management techniques in childhood and adolescence: Relaxation training, meditation, hypnosis, and biofeedback: Appropriate clinical applications // Clinical Pediatrics. – 1987. – Vol. 26. – P. 581–585.
19. Игошев К. Е. Опыт социально-психологического анализа личности несовершеннолетних правонарушителей. – М.: Высшая школа МООП СССР, 1967. – 80 с.
20. Avci H., Baams L., Kretschmer T. A systematic review of social media use and adolescent identity development // Adolescent Research Review. – 2025. – Vol. 10, No. 2. – P. 219–236. – DOI: 10.1007/s40894-024-00251-1.
21. World Health Organization Regional Office for Europe. A focus on adolescent social media use and gaming in Europe, central Asia and Canada: Health Behaviour in School-aged Children international report from the 2021/2022 survey. Volume 6. – Copenhagen: WHO Regional Office for Europe, 2024. – ISBN 978-92-890-6132-2.
22. World Health Organization Regional Office for Europe. A focus on adolescent peer violence and bullying in Europe, central Asia and Canada: Health Behaviour in School-aged Children international report from the 2021/2022 survey. Volume 2. – Copenhagen: WHO Regional Office for Europe, 2024.
23. World Health Organization Regional Office for Europe. Teens, screens and mental health: New WHO report indicates need for healthier online habits among adolescents. – 25 September 2024.

YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR

XVI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI

2026-yil, avgust

Mas'ul muharrir: *F.T.Isanova*
Texnik muharrir: *N.Bahodirova*
Diszayner: *I.Abdihakimov*

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.

XVI Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.

2-jild, 16-son (28-avgust, 2026-yil). – 102 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

ISSN: 3093-8791 (onlayn)

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2026-yil, 26-avgust.

Barcha huquqlar himoyalangan.
© Science problems team, 2026-yil.
© Mualliflar jamoasi, 2026-yil.